

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORİYASI

AMONOV DILSHOD ABDURAXMONOVICH

**“SIRATU ASRORI IL-ILOHIYYA” RISOLASI
XV–XVI ASR MUSIQA ILMI KESIMIDA**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (Phd)
on art history**

Amonov Dilshod Abduraxmonovich

“Siratu asrori il-Ilohiyya” risolasi

XV–XVI asr musiqa ilmi kesimida.....

Амонов Дилшод Абдурахмонович

Музыкальная наука XV–XVI веков на примере трактата

“Сирату асрори ил-Илахийя”.....

Amonov Dilshod Abduraxmonovich

Musical science of XV–XVI centuries on the example

of the treatise “Siratu asrori il-Ilahiya”.....

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

AMONOV DILSHOD ABDURAXMONOVICH

**“SIRATU ASRORI IL-ILOHIYYA” RISOLASI
XV–XVI ASR MUSIQA ILMI KESIMIDA**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/San289 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning (www.konservatory.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nosirova Yulduz Mirxamidovna
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Erkinov Aftondil Sadirxanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Kasimxodjayeva Saida Botirovna,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

**Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy
musiqqa san’ati instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__”_____ kuni soat __dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-pochta: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__”_____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “__”_____dagi __ raqamli reyestr bayonnomasi)

T.B.G‘ofurbekov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

B.Sh.Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.B.Qosimxo‘jayeva

Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilmiy merosida musiqashunoslik manbalari va ularga bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lgan nodir qo‘lyozmalar alohida o‘rin egallashi, birlamchi manbalar, ya’ni qadimiy osoriyatqalar, tarixiy hamda ilmiy risolalarda bayon etilgan fikrlar fors, arab va turkiy tillarda yaratilgani, umumjahon amaliyotida milliy qadriyatlar, badiiy meros shu bilan birga, musiqa san’ati ham asosan tarixiy, nazariy, filologik, adabiyotshunoslik, estetika sohalaridagi mezonlar va me’yorlar asosida tahlillangan. Sharq musiqiy tafakkurining musiqaga oid ilmiy-nazariy shoh asarlarini ta’limotlarga tayanib tadqiq etish musiqa ilmining rivojiga beqiyos hissa qo‘shishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo musiqashunosligida azaldan chambarchas bog‘langan mushtarak ilmiy-amaliy ijod namunalari musiqiy qadriyatlarni bir butunlikda va atroflicha idroklashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi, bu ilmiy izlanishlar orqali amaliyotda pishib yetilgan tartib va nizomlar, parda birliklari nazariy jihatdan puxta ishlangan va amaliyotdagi barqaror kuy hamda iyqo tuzilmalari bilan dalillanadi. Ilmiy-amaliy jihatlardan bunday uyg‘unlashgan yuksak musiqiy mafkura jahon merosida kam uchraydigan voqelikni tadqiq etish talab etilmoqda.

O‘zbekiston zaminida yuzaga kelgan ulkan bilim va ma’rifat manbalari umumiy tartibga keltirilib, yagona maqsadga qaratilganda o‘zbek musiqasi tarixi deyiladigan voqelikning uzoq va yaqin tarixi haqida mufassal taassurot yaratish imkoni paydo bo‘lmoqda. “So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san’atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi”¹. Demak, o‘zbek musiqashunoslarining buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan manbalar, risolalar, bayozlarni tadqiq etishi, ulardagi ilmiy-nazariy masalalarni yoritishiga imkon yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son, 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son, 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-126-son qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4829149>.

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti “Sharq qo‘lyozmalari fondi”da bir qator musiqiy qo‘lyozma risolalar mavjud bo‘lib, ular O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatini o‘rganish yo‘lida yagona hujjatli birlamchi manbalardir. Muallifi noma’lum “Siratu asrori il-ilo‘hiyya” risolasi bilan bir qatorda XV–XVI asrda yaratilgan risolalarning lad va ritm masalalari o‘rganilgan.

Musiqashunoslik ilmida mazkur davrga oid risolalarga nisbatan qiziqish XX asrning boshlaridan boshlab sezilarli darajada faollashdi. Bu borada yevropalik tadqiqotchilardan fransuz olimi baron D’Erlanjeni misol keltirish mumkin. Uning butun hayoti davomidagi mashaqqatli mehnatining samarasi natijasi 1930–1939-yillarda Parijda chop etilgan “Arab musiqasi”² nomli bir necha jildli kitobdan iborat bo‘ldi. D’Erlanjening tadqiqotlari mazkur mualliflarning asarlariga tayangan holda tarjimalar, ilmiy tahlillar hamda musiqiy-nazariy boblarning sharhlarini o‘z ichiga oladi. Bu ish kelajakda Z.Yusuf, Muhammad Taki Binish, M.Xifni, L.Manik, G.J.Farmer³ kabi tadqiqotchilar tomonidan davom ettirildi.

1968-yilda Tehrondagi “Bunyadi farhangi Iran” madaniyat markazi tomonidan risolaning tanqidiy matnini X.Rabino tayyorlagan va uning vafotidan so‘ng G.J.Farmer va Eron an’anaviy musiqasi bilimdonlari Riz Massah va Mihdi Miftoh ishtirokida nashr etildi. Ahmad al-Ahvoni, Mahmud Xifni va Zakariya Yusuf har bir musiqaga oid risolalar nashr etilishiga katta hissa qo‘shgan. Bularning sa’y-harakatlari tufayli Forobiy, Ibn Sino va Ibn Zaylarning “Kitob al-musiki al-kabir” (Qohira, 1967), “Javami al-ilm al-musiki” (Qohira, 1956), “Kitob al-kofi al-musikiy” (Bag‘dod, 1964) kabi asarlari nashr etildi. Ushbu nashrlar atoqli mutafakkirlarning ijodiy merosi bilan bir qatorda Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining qadimiy musiqiy an‘analarini chuqurroq va atroflicha anglashda zamin yaratadi. Forobiy, Ibn Sino va boshqalarning musiqiy-nazariy asarlarini o‘rganishga qiziqish 1960–1970-yillardan e’tiboran yanada kuchaydi. Forobiyning “Kitob al-isxa, al-ika” risolasini, Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo” musiqiy bo‘limini M.Xifni va E.Neubauer nemis tiliga ilmiy tarjima qilib, nashr ettirdilar.

Eronlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida, xususan, Abdulqodir Guyandning “Ta’likati Maragi, Maqāsīd al-axān” (Tehron, 1966) asari

² D’Erlanger. I. 1930: D’Erlanger, Baron Rodolphe. La Musique arabe. T.I. Al-Farabi, Abu n-Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarhan ibn Uzlug. Grand Traite de la musique. Kitabu 1-musiqi al-kabir. Livres I et II. – Paris: 1930.

³ Ибн Сина. Китаб аш-Шифа, Ар-Рийадийат, Джавами илм ал-мусика. Matni tayyorlovchi: Z.Yusuf. – Qohira: 1956.; Абд ал-Кадир Мараги. Макасид ал-алхан. Баихтима-и Таки Биниш. – Tehron: 1966.; Абу Наср ал-Фаробий. Китаб ал-мусика ал-кабир. Matni tayyorlovchi – G.M.Xashab, sharhlovchi – Mahmud al-Hifni. – Qohira: 1967; Manik L. Das Arabische Ton system im Mittelalter. – Leiden: 1969.; Farmer H. G. A History of Arabian Music to the 13 th century. – London: 1929; Farmer H. G. The Sources of Arabian Music. An Annotated Bibliography of Arabic Manuscripts which deal with the Theory, Practice and History of Arabian Music from the Eighth to the Seventeenth Century. – Leiden: 1965.

hamda Taki Binishaning ishlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etishi ta'kidlash lozim. Olim Aleksandr Semyonovning "Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али (XVI века)"⁴ tarjimasini XVI asrdagi mashhur musiqiy risolalardan biri bo'lib, musiqaga oid nazariy qarashlari o'rganilgan. Risolada muallifning musiqiy ijro vositalari, xususan, cholg'ular va ulardan foydalanish usullari haqidagi ta'riflari berilgan. Musiqa nazariyasi, asboblari va maqomlar tizimiga oid ta'limotlarning ilmiy asoslari ko'rib chiqilib, xususan, Kavkabiyning nazariy merosiga tayanadi. Semyonovning bu asari Sharq musiqasi tarixi va nazariyasini o'rganish uchun muhim manba bo'lib, u Darvish Alining XVI asrdagi musiqiy qarashlarini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Manbashunos olim Is'hoq Rajabov⁵ o'rta asr olimlarining maqomlar masalasiga doir risolalarining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilgan tadqiqotchi sifatida tanilgan. U maqomlarning tarixi, tuzilishi va ijrochilik an'analarini tadqiq qilib, ularni falsafiy, madaniy va ma'naviy nuqtayi nazardan ham o'rgangan. Rajabov maqomlarning ma'naviy qiymatini, ularning xalq musiqasi bilan bog'liqligini va ularning madaniy merosimizdagi ahamiyatini ilmiy asosda tushuntirib bergan. Uning asarlari va nazariy qarashlari hozirgi kungacha musiqashunoslar, tadqiqotchilar va ijrochilar uchun muhim manba hisoblanadi.

Musiqiy manbashunos olim Aleksandr Jumayev⁶ turli davrlardagi musiqashunos olimlarning risolalarini, shu jumladan, Kavkabiyning asarlarini tarjima qilish bilan faol shug'ullanib kelmoqda. Bu esa tadqiqotchilarga masalalarni yanada osonroq tushunishga imkoniyat yaratmoqda. Uning tadqiqotida Kavkabiyning hayoti va ijodi, jumladan, uning musiqa ilmiga oid falsafiy qarashlari haqida batafsil tavsif keltirilgan. Bu esa Markaziy Osiyo madaniy merosini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Musiqiy manbashunos olim Baxtiyor Ashurov o'zining ilmiy tadqiqotida⁷ Kavkabiyni va Darvish Alining asarlarida musiqiy ijro va nazariy bilimning o'zaro aloqasini tahlil qilib, olimlarning qarashlari zamonaviy musiqiy ijrochilikda ham foydalanilishi mumkinligini ta'kidlaydi. B.Ashurovning dissertatsiyasi milliy musiqaning tarixiy va nazariy asoslarini zamonaviy talqinda tushunish uchun muhim tadqiqot hisoblanadi.

Sharq manbashunos tadqiqotchilardan biri bu rus olimi Aleksandr Aleksandrovich Semyonovdir. Yillar mobaynida A.Semyonovning ishtiroki va umumiy tahriri ostida "Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР"ning yetti jildi nashr etildi. O'rta asr qo'lyozmalariga murojaat etgan tadqiqotchilar: V.M.Belyayev MDH xalqlarining tarixiga murojaat qilgan, O'zbekiston musiqasi tarixi haqida S.M.Veksler, V.S.Vinogradov Eron an'anaviy musiqasini yoritgan, F.M.Karomatov o'zbek xalq musiqasiga murojaat qilgan, Ibn

⁴ Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али (XVI века). – Ташкент: 1946.

⁵ Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. – Тошкент: 1963.

⁶ Джумаев А. Наджм ад-Дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XV–XVI вв. Жизнь и творчество (исследования и переводы). – Ташкент: 2016.

⁷ Ashurov B. XVI–XVII asrlarda milliy musiqiy tafakkur rivojining zamonaviy talqini (Najmiddin Kavkabiyni va Darvish Ali Changiy ("Risolayi musiqiy"lari asosida). 17.00.02-san. fan. diss. (PhD). – Toshkent: 2019. B. 143.

Sinoning musiqiy ta'limoti haqida T.S.Vizgo, I.R.Rajabov maqomlar masalasiga, Najmiddin Kavkabi va uning musiqiy merosiga A.Rajabov va D.A.Rashidova⁸ murojaat qilganlar.

Al-Kindi, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Kavkabi, Jomiy, Husayniy kabi o'rta asr Sharq olimlarining musiqiy va nazariy merosiga qiziqish sharqshunos olimlar tomonidan uzoq yillar davomida namoyon bo'lgan. D'Erlanje, Taki Binish, G.Farmer, M.Xifni, I.Filshtinskiy, A.Semyonov, I.Rajabov, S.Daukeyeva, Z.Oripov, L.Saldadze, V.Belyayev, S.Veksler, F.M.Karomatov, Y.Kon, T.S.Vizgo, A.Rajabov, D.A.Rashidova, A.Jumayev, A.Nazarov, B.Ashurov⁹ kabi olimlar shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, "Siratu asrori il-ilohiyya" asari muallifi noma'lum bo'lib, mazkur risolaga I. Rajabov o'zining "Maqomlar" kitobida ikki marotaba murojaat qiladi. U Muso

⁸ Qarang. Семенов А.А. Библиографический указатель восточной и европейской литературы о восточной музыке. – Ташкент: 1938.; Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али (XVI века). – Ташкент: 1946.; Семёнов А.А. К истории узбекской классической музыки. "Литература и искусство Узбекистана". – Ташкент: 1940.; Очерки по истории музыки народов СССР, вып. 1. Музыкальная культура Киргизии, Казахстана, Туркмении, Таджикистана и Узбекистана. – Москва: 1962.; Очерк истории узбекской муз. культуры с древнейших времен до Октябрьской революции. Ташкент, 1965.; Виноградов В. С. Классические традиции иранской музыки. – Москва: "Сов. Композитор", 1982.; О локальных стилях узбекской народной музыки, – Москва: 1964.; Муз. инструменты в миниатюрах рукописей XIV–XVI веков, 1969.; Учение Ибн Сины о музыке в свете проблемы взаимоотношений искусства народов Востока и Запада, 1980, №8-9.; Исҳоқ Ражабов. Мақомлар масаласига доир. – Тошкент: 1963.; Начмиддин Кавкабий Рисолаи мусики; Рисола дар баёни Дувоздах маком. Таҳия, таҳқиқ ва тавзеҳот ба қалами Асқарали Рачабов. – Душанбе: "Ирфон", 1985.; Рашидова Д. Нажджмиддин Кавкаби Бухари//История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – Москва: 1972.

⁹ D'Erlanger, I., Baron Rodolphe. La musique arabe. T.I. Al-Farabi, Abu n-Nasr Muhammad ibn Muhammad Tarhan ibn Uzlag. Grand Traite de la musique. Kitabu l-musiqi al-kabir. Livres I et II. – Paris: 1930.; Абд ал-Кадир Гайби ал-Хафиз ал-Мараги. Джамии' ал-алхан. Хатима. Ба ихтимам-и Таки Биниш. – Тегеран: 1993.; Farmer H. G. A History of Arabian Music to the 13 th century. – London: 1994.; Абу Наср ал-Фароби. Китаб ал-мусака ал-кабир. Критический текст и предисловие – Москва: Хашаб; комментарии – Махмуд ал-Хифни. – Каир: 1967.; Фильштинский И.М. Арабы и Халифат / под ред. М. Кузьмина. – Москва: Ломоносовъ, 2022. (История. География. Этнография); Семенов А. Культурный уровень первых шейбанидов. Советское востоковедение. –Москва: 1956, № 3.; Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: 2006.; Даукеева С. Д. Философия музыки Абу Насра Мухаммада аль-Фараби / Саида Даукеева. – Алматы: Фонд Сорос-Казахстан, 2002.; Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar). – Toshkent, 2008.; Салдадзе Л. Ибн Сина (АВИЦЕННА). Страницы великой жизни. – Ташкент: 1985.; Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана. – Москва: 1933.; Векслер С. Узбекские макамы. Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Сборник статей. – Ташкент: 1961.; Кароматли Ф. Музыка народов Средней Азии в мифах и легендах. "San'at/ Искусство". 1999. №2.; Кон Ю. Ближайшие задачи в области изучения узбекской музыки. Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Сборник статей. –Ташкент: 1961.; Вызго Т. С. К вопросу об изучении макомов. История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. – Москва: 1972.; Раджабов А. Деятели таджикского традиционного музыкального искусства: история и современность, Таджикская музыка, Авторский коллектив. – Душанбе: 2003.; Вызго Т., Рашидова Д. О музыкально-теоретическом наследии народов Средней Азии. ОНУ. 1962. №3.; Джумаев А. Трактат о музыке. Наджм ад-Дина Кавкаби Бухари. Предисловие, перевод с персидского и примечания А.Джумаев, Восток Свыше. Духовный, литературно-исторический журнал. 2014, Выпуск XXXII.; Форобий ва Ибн Сино Мусикий ритмика хусусида (мумтоз ийқоъ назарияси). – Тошкент, 1995.; XVI–XVII asrlarda milliy musiqiy tafakkur rivojining zamonaviy talqini (Najmiddin Kavkabi va Darvish Ali Changiy "Risolayi musiqiy"lari asosida). Avtoreferat. – Toshkent: 2019.

payg'ambar haqidagi rivoyatga tayangan holda ushbu qo'lyozmani manba sifatida keltirar ekan, uni "Risolatun fi-'ilmi al-mūsikī" deb ataydi.

A.Jumayev¹⁰ esa mazkur qo'lyozmaning mavjudligi haqida ma'lumot berib, "Risola dar bayoni ilmi musiqi" deb nomlaydi. Amerikalik tadqiqotchi V.Sumits o'zining dissertatsiyasida mazkur qo'lyozma haqida ma'lumot berib, uni "Nixol al-asvat" deb nomlaydi. Ushbu qo'lyozmaning yana bir nusxasi Sankt-Peterburg kutubxonasida¹¹ saqlanmoqda. Xullas, "Siratu asrori il-ilohiyya" muallifi noma'lum qo'lyozma alohida tadqiqot sifatida hali ko'rilmagan bo'lib, hozirgi zamon maqom san'ati tarixi bilan bevosita bog'liqligi tadqiq etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy va jahon musiqa san'atida professional kadrlar tayyorlashning ilmiy-ijodiy prinsiplari", "Maqom san'ati tarixi, nazariyasini o'rganish va yosh avlodni maqomlar ruhida tarbiyalash" mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XV–XVI asrlarda shakllangan musiqiy ilmni "Siratu asrori il-ilohiyya" risolasi kesimida tadqiq qilish bilan bir qatorda musiqa san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan davr musiqashunosligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XV–XVI asr manbalaridagi musiqa ilmi, ilmiy-nazariy masalalardagi ustuvor yo'nalishlarni ifodalab berish;

"Siratu asrori il-Ilohiyya" muallifi noma'lum risolada parda va iyqo masalalarining shakllanishi va takomillashishidagi hissasining tarixiy omillarini aniqlash;

davr kesimida "Siratu asrori il-ilohiyya" risolasi misolida parda masalalari, tovushqatorlarning mumtoz musiqa merosidagi muhim o'rin tutganligini asoslab berish;

Kavkabiyy, Jomiy, Husayniy va muallifi noma'lum "Siratu asrori il-ilohiyya" risolalarida ritm masalalariga bo'lgan qarashlarni qiyosiy kesimda aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida XV–XVI asr risolalarida bayon etilgan ilmiy meros tanlangan.

Tadqiqotning predmeti XV–XVI asarlarda qo'lyozmalarda shakllangan musiqiy-nazariy masalalar yechimi, amaliyotga bog'liq jihatlari, o'sha davr bastakorlik ijodiyotining o'ziga xoslik jihatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tasniflash, qiyosiy-tarixiy metod kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Siratu asrori il-ilohiyya" qo'lyozmasida musiqashunoslikka oid parda, iyqo, navbati murattab shakllar ud sozida tor va pardalarni belgilanadigan harflar vositasida maqomlar tuzilishining lad tovushqatorlaridagi jins va jamlar tizimlashtirilishi asosida aniqlangan;

¹⁰ Джумаев А. Наджм ад-Дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XV–XVI вв. Жизнь и творчество (исследования и переводы). – Ташкент: 2016. С. 193.

¹¹ Институт восточных рукописей Российской академии наук. № 2257/5.

iyqo usullariga bag‘ishlangan hazaj, ufor, turkiy zarb va muxammas kabi doira ritmik tuzilmalari, usul birliklari hamda takroriy segmentlari ritmik shakllanishni ta‘minlovchi asosiy zarblar, pardalar ohang va matnga bog‘liqligi, mazkur tizimning Kavkabiylar, Jomiy va Husayniylar tomonidan ilgari surilgan usul va g‘azal uyg‘unligi haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg‘un ekanligi dalillangan;

“Siratu asrori il-ilohiyya” qo‘lyozmasi bilan Kavkabiylar, Jomiy va Husayniylar risolalari qiyosiy baholanishi manbalardagi zarbul qadim, duyak, ramal, avsat, saqil kabi ritmik tizimlarda “Rost”, “Ushshoq”, “Navo”, “Buzruk” advori zurublar negizida shakllanganligi isbotlangan;

maqomshunoslikda kam uchraydigan naqra, murakkabot, furu kabi atamalarning o‘n ikki maqom rivojiga maqomot tuzilmasining murakkab ritmik va shakliylar tizimi kengayishi sababli ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘rganilayotgan davr manbalaridan olingan ma‘lumotlar asosida yangi musiqiy shakllar, bastakorlik ijodiyoti namunalari orqali bugungi kun uchun muhim bo‘lgan nazariy-amaliy tushunchalar orqali yoritilgan;

“Siratu asrori il-ilohiyya” risolasida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ilmiy-nazariy masalalar asoslab berildi;

o‘rta asr olimlarining ilmiy merosini taqqoslash orqali Sharq musiqashunosligining bir qator nazariy qarashlariga aniqlik kiritildi;

oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida, umumta‘lim maktablarida musiqa san‘atini o‘rganishda qo‘shimcha adabiyot bo‘lishi, “O‘zbek musiqasi tarixi”, “Manbashunoslik”, “Sharq musiqasi madaniyati” kabi fanlarga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilishida ushbu o‘rganilayotgan davr risolalaridagi ilmiy-nazariy ma‘lumotlar xizmat qilishi aniqlangan. Ko‘pgina atamalarga aniqlik kiritilib, bugungi kunda amaliyotda joriy etish mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlil etilgan birlamchi risolalardan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, olingan natijalarning amaliyotda, ta‘lim jarayonida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nazariy xulosalar bugungi davr musiqashunosligida mavjud ma‘lumotlarni kengaytiradi va to‘ldiradi, musiqiy manbashunoslik yo‘nalishida birlamchi manbalarda mavjud musiqiy atamalar mohiyatini teran anglash va yangicha, o‘ziga xos uslubda tadqiq etish, mavjud ilmni amaliyot, ijrochilik kesimida tadqiq etish kabi imkoniyatlarni beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi ilmiy ma‘lumotlarni oliy ta‘lim muassasalarida “Manbashunoslik” fanida an‘anaviy cholg‘u ijrochiligi, an‘anaviy xonandalikda dasturulamal sifatida, qolaversa, sozgarlik san‘atida musiqiy cholg‘ular haqidagi ma‘lumotlarni amaliyotda joriy etish jarayonlarida foydalidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. ““Siratu asrori il-ilohiyya” risolasi XV–XVI asr musiqasi ilmi kesimida” tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Siratu asrori il-ilohiyya” qo‘lyozmasida musiqashunoslikka oid parda, iyqo, navbati murattab shakllar ud sozida tor va pardalarni belgilanadigan harflar vositasida maqomlar tuzilishining lad tovushqatorlaridagi jins va jamlar tizimlashtirilishidan “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasi orqali efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” turkum eshittirishlari ssenariysida 2023–2024-yillarda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasining 2024-yil 6-martdagi 04-36-341-son ma’lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilar shu asosda “Siratu asrori il-ilohiyya” risolasiga doir ma’lumotlar bo‘yicha aniq tasavvur hosil qilganlar;

iyqo usullariga bag‘ishlangan hazaj, ufor, turkiy zarb va muxammas kabi doira ritmik tuzilmalari, usul birliklari hamda takroriy segmentlari ritmik shakllanishni ta’minlovchi asosiy zarblar, pardalar ohang va matnga bog‘liqligi, mazkur tizimning Kavkabiylar, Jomiy va Husayniylar tomonidan ilgari surilgan usul va g‘azal uyg‘unligi haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg‘un ekanligidan “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasi orqali efirga uzatilgan “Musiqqa javoni” va “Bastakorlar hayoti tarixidan” turkum eshittirishi ssenariysida 2023–2024-yillarda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 23-sentabrdagi 04-36-1049-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilar shu asosda “Siratu asrori il-ilohiyya” risolasiga doir ma’lumotlar bo‘yicha aniq tasavvur hosil qilganlar;

“Siratu asrori il-ilohiyya” qo‘lyozmasi bilan Kavkabiylar, Jomiy va Husayniylar risolalari qiyosiy baholanishi manbalardagi zarbul qadim, duyak, ramal, avsat, saqil kabi ritmik tizimlarda “Rost”, “Ushshoq”, “Navo”, “Buzruk” advori zurublar negizida shakllanganligidan O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida faoliyat yuritayotgan bastakorlar va musiqashunoslar shu’ba majlislarida, “Musiqashunoslar bilan uchrashuv” turkum tadbirlari doirasida o‘tkazilgan ijodiy uchrashuvda foydalanilgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2024-yil 5-martdagi № 01-04/23-48-son ma’lumotnomasi). Natijada yosh kompozitorlar va yosh olimlar XV–XVI asr musiqqa ilmi haqida yanada yangi ma’lumotlarga ega bo‘lishlariga erishildi;

maqomshunoslikda kam uchraydigan naqra, murakkabot, furu kabi atamalarning o‘n ikki maqom rivojiga maqomot tuzilmasining murakkab ritmik va shakliy tizimi kengayishi sababli ijobiy ta’sir ko‘rsatganligidan O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida faoliyat yuritayotgan bastakorlar va musiqashunoslar shu’ba majlislarida, “Musiqashunoslar bilan uchrashuv” turkum tadbirlari doirasida o‘tkazilgan ijodiy uchrashuvda foydalanilgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2024-yil 5-martdagi № 01-04/23-48-son ma’lumotnomasi). Natijada yosh kompozitorlar va musiqqa tadqiqotchilari XV–XVI asrlardagi risolalarda berilgan ma’lumotlar hamda musiqqa yo‘nalishlarida olib borilgan ishlar to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlarga va aniq tasavvurlarga ega bo‘lganlar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) va 8 ta ilmiy tezislar respublika va xalqaro anjuman to‘plamlarida nashr qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 124 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsad va vazifalari bayon qilingan, dissertatsiya obyekti va predmeti ko‘rsatilib, ilmiy tadqiqot ishi oldiga qo‘yilgan vazifaning o‘rganilganlik darajasi, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**XV–XVI asrlar musiqashunosligining ustuvor yo‘nalishlari**” deb nomlanib, ikki fasldan iborat. Mazkur bob ushbu davrda Markaziy Osiyoning olimlari, etnografiyasi, muhiti, madaniyati va o‘ziga xos jihatlari bilan tarixiy manbalar asosida keng yoritilgan.

Ushbu bobning “**XV–XVI asrlarda ijtimoiy-madaniy muhit**” deb nomlangan faslida Markaziy Osiyo murakkab tarixiy davrda – Temuriylar davlatining siyosiy inqirozga uchrashi va yemirilishi, Husayn Boyqaro saroyida Alisher Navoiy (1441–1501), Abdurahmon Jomiy (1414–1492) hamda Husayn Voiz Koshifiy (1440–1505), Kamoliddin Binoiy (1453–1512), Kamoliddin Behzod (1455–1537) kabi buyuk ijod ahli qatorida Ustod Qulmuhammad Udiy, Ustod Sayyid, Ustod Shohquli G‘ijjak, Ahmad G‘ijjak, Ustod Shayx Foniylar nafaqat Xurosonda, balki butun dunyoda nom chiqargan yetuk olim allomalar haqida ma‘lumot beriladi.

“Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506 hukmronlik yillari) eng mashhur temuriy hukmdorlardan edi. XV asrning ikkinchi yarmida Shayboniylar bosqiniga qadar o‘ttiz yildan ortiq hukmronlik qilgan. Uning uzoq hukmronligi davrida u o‘z shohligini zerikarli boshqarishdan ko‘ra xattotlik, rasm, she‘riyat, musiqa, raqs kabi zavqlarga ko‘proq mehr ko‘rsatdi. Uning maslahatchisi va qirollik muhri qo‘riqchisi bo‘lgan Mir Alisher Navoiy (1441–1501) bilan birga tasviriy san‘atni misli ko‘rilmagan yuksaklikka ko‘tardi. Shuningdek, u sozanda va raqqosalarga saxiylik bilan homiylik qilgan, Hirotning ulug‘vor bog‘larida she‘riy va musiqali yig‘inlar

(bazmlar) o‘tkazgan, bu yig‘inlarga shahzodalar, zodagonlar, shoirlar, xattotlar, san’atkorlar, qo‘shiqchilar va cholg‘uchilar tez-tez taklif qilinardi”¹².

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy Hirot ilm ahli namoyandalariga homiylik qilganligini ko‘rsatish joiz, albatta. Navoiyning bevosita musiqiy ilmga oid asari yoki bastalagan aniq bir kuyi bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa ham, biroq manbalarda uning bir qancha musiqashunoslarga homiylik qilib, ularga musiqaga oid risolalar yozishga buyurtma berganligi qayd etilgan. Bevosita Navoiyning homiyliги va buyurtmasiga binoan yozilgan musiqaga oid risolalar shoirning o‘zi qayd etishicha, beshta bo‘lgan Z.Oripovning “Navoiy davri musiqa risolalari haqida” maqolasida ular soni yettitaga yetgan deb ta’kidlanadi.

Tahlil asosida shu narsa ayon bo‘ldiki, ko‘rib chiqilayotgan davrda Shayboniy Ubaydullaxon Hirot madaniy hayotini yaxshi tashkil etgan, saroy markazining beqiyos siyosiy ahamiyatini tushunadi va uning faoliyatini saqlab qolish yo‘lida barcha choralarni ko‘rdi. U o‘tgan davrning ulkan madaniy jamg‘armalarini asrab-avaylash, temuriylar davri madaniyati va san’at ahlining bunyodkorlik faoliyatini davom ettirishi uchun sharoit yaratishida qayg‘urgani bilan bir qatorda o‘zidan oldingilaridan kam bo‘lmagan holda homiy va san’at biluvchisi sifatida shuhrat qozonish uchun harakat qilgan.

Har bir davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bevosita madaniy hayotga, o‘sha davr rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. XV–XVI asrlarda barcha madaniyat va san’at sohalaridagi rivojlanish bevosita davrning siyosiy mafkurasi bilan chambarchas bog‘langan. Tarixiy davrdan shunisi ma’lum bo‘ladiki, birinchidan, aynan mazkur davrda Shayboniylar ta’sirida turkiy madaniyat va san’at Eronning ta’siridan mutlaq chiqib ketadi. Shayboniylar xuddi temuriylar kabi nihoyatda o‘qimishli bo‘lgan, dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan. Temuriylar davrida tarixiy kitoblar forscha ko‘plab yozilgan bo‘lsa, Shayboniylar zamonida turkiy tilda ham ta’rif etiladi. Ikkinchidan, barchaning diqqat-e’tibori fors tili va uning qanchalar jarangdorligiga qaratilgan bir vaqtda, Alisher Navoiy turkiy tilning nechog‘lik go‘zalligi, boyligini to‘la ochib bera oldi va ushbu tilda betakror asarlar yaratdi. Turkiy tilga bo‘lgan e’tibor, bu tilning rivojiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shdi, qolaversa, mazkur davr madaniyat va san’at sohalari, shu jumladan, musiqa ham nihoyatda gullab-yashnadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Siratu asrori il-iloḥiyya” muallifi noma’lum risola muqaddimasi**” deb nomlanib, bevosita muallifi noma’lum **“Siratu asrori il-iloḥiyya”** risolasining tahlili keltirilgan. Birinchi navbatda shu qo‘lyozmaning umumiy bo‘limlari, ketma-ketligi ko‘rib chiqilgan.

Qo‘lyozma qaysi maqsadda va kimning ko‘magida yozilganligi, uni o‘n ikki bobga bo‘lib ularning umumiy mundarijasi (har bir bobni qaysi masalalarga bag‘ishlaganini umumiy ko‘rinishda) keltiriladi.

¹² Mohammad Taghi Massoudieh, Manuscripts persans concernant la musique (München: G. Henle Verlag, 1996). 124–125-betlar.

Qo‘lyozma matni bizgacha nisbatan yaxshi ahvolda saqlanib kelgan. Risola matnidan shu narsa ma‘lum bo‘lmoqdaki, muallif faqatgina nazariy bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki amaliy qarashlarini ham asarda bildiradi.

Qo‘lyozma matnida uning qachon yozilganligi va muallif nomiga shama qiladigan hech qanday ma‘lumot berilmagan. Lekin muallif risola boshlarida Darvesh Fazlullohi Noiy (tavallud sanasi noma‘lum, vafoti Samarqand, 1511) ustoz tilidan olingan deb ma‘lumot beradi. Demak, taxminiy yondashadigan bo‘lsak XV asrning oxiri va XVI asrning boshlang‘ich o‘n yilligiga to‘g‘ri kelmoqda (shuni aytib o‘tish lozimki, qo‘lyozma muallifi Kavkabiyning (147x–1533) zamondoshi ham bo‘lishi mumkin). Risola matnidan shu narsa ma‘lum bo‘lmoqdaki, muallif faqatgina nazariy bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki amaliy qarashlarini ham asarda bildirmoqda. Ish jarayonida matnning maqom, ovoza, shu‘ba, usul va h.k. kabi asl atamalari imkon qadar saqlab qolindi. Bu bilan biz o‘sha davrda qo‘llanilgan atamalar bilan ularning bugungi kundagi ko‘rinishlarini taqqoslab, ularga aniqlik kiritishga harakat qildik

*“Alaxusus ustozlarning tilidan, Darvesh Fazlullohi Noiy o‘z davrining yetuk, tengsiz musiqachilardan va u shu fanni Shaxzoda janob Xoja Yusuf Xoja Burhoniddin Rahmatulloh Shayx ul-islom Ahmad Qosim “quddisa sirrihu” (“Quddisa sirrihu” – arabcha “sirri muqaddas bo‘lg‘ay” degan ma‘noni anglatadi va vafot etganlar haqida aytiladigan duo hisoblanadi) farzandidan o‘rgandi. Ushbu qasida toliblarga fayz bersin va ushbu fanni o‘rganishda ko‘mak bersin”*¹³. Mana shu satrlardan bilinib turibdiki, bu qo‘lyozma avvalambor o‘quv qo‘llanma sifatida yozilgan, u toliblarga qaratilgan va bevosita darslik sifatida berilgan desak mubolag‘a bo‘lmas.

Ushbu risolani yozishda ustozlarning tilidan, alal xusus Darvesh Fazlullohi Noiy, Xoja Yusuf Burhoniddinning shogirdidan yozib olganligini ta‘kidlamoqda. Xoja Yusuf Burhon haqida Kavkabiyning o‘zining “Risolayi musiqiy”sida “Xoja Yusuf Burhon kaminaning ustozlari (ya‘ni Kavkabiyning o‘zini nazarga tutmoqda) va janob Xoja Abdulqodirning shogirdi (bu yerda Abdulqodir Marog‘iyni nazarda tutmoqda)”¹⁴.

Demak, bevosita ustoz-shogird shajarasi bo‘yicha Darvesh Fazlullohi Noiy, Xoja Yusuf Burhonning shogirdi va u o‘z navbatida Marog‘iyning shogirdi ekanligi va Marog‘iy yaratgan maktab vakillari ekanligi aniqladi.

Muallifi noma‘lum qo‘lyozma misolida xulosa qilsa bo‘ladiki, ushbu davrga kelib (XV–XVI asr) risolalarga qo‘yiladigan talablar shakllangan. Risolaning ilmiy yondashuvi, tuzilmasi va unda mujassam bo‘lgan ma‘lumotlar tizimlashtirilgan. Buni Marog‘iy (“Jome ul-alhon”¹⁵ va “Maqosid ul-alhon”¹⁶), Jomiy (“Risolayi

¹³ Noma‘lum muallif, №8739/III: Risolaning nomi ham noma‘lum. Qo‘lyozma. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti №8739/III. B. 105–111.

¹⁴ Рисолаи мусиқӣ; Рисола дар баёни Дувоздах мақом. Таҳия, таҳқиқ ва тавзеҳот ба қалами Асқарали Раҷабов. – Душанбе: Ирфон, 1985. С. 52.

¹⁵ Abdülkâdir-î Merâgî. Nuruosmaniye Ktp Câmîu‘l-Elhân. Nr. 3644.

¹⁶ *Makāsîdu‘l-elhân*, Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanesi, Revân. Nr. 1726.

musiqiy”¹⁷), Kavkabiy (“Risolayi musiqiy”¹⁸), Husayniy (“Qonun”¹⁹) risolalari bilan solishtirganda aniq ko‘zga tashlanadi, ya’ni shu davrga kelib musiqashunoslik shakllanib bo‘lgan. Qo‘lyozmani tahlil qilish jarayonida shunday xulosaga keldikki, mazkur davrda musiqashunoslikka oid risolalarda qo‘yiladigan talablar, ularning tuzilishi (shakl jihatdan), mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ketma-ketligi va fikrni bayon etish uslublari shakllangan. Ushbu qo‘lyozma ham shu an’analarni davom ettiradi. Albatta, risolaning o‘z yondashuvi, yangi fikrlari, boshqa manbalardan farqli ma’lumotlari ham mavjud, lekin shakl tuzilishi va ma’lumotlari yuqoridagi risolalardagidek.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Siratu asrori il-ilo’hiyya” risolasida lad masalalari**” deb nomlanib, risolasining tuzilishini bir qator asosiy masalalar tashkil etadi, ularning aksariyati maqomot bilan bog‘liq. Ushbu omil risolaning 12 bobga bo‘lingani, ya’ni 12 maqom bilan uzviy bog‘liqligidan dalolatdir. O‘n ikki maqomning qanday paydo bo‘lgani, uning nomlari, yigirma to‘rt shu’ba va ularning ladhari ud cholg‘usi misolida nota namunalari Jomiy²⁰, Kavkabiy²¹, Xusayniy²², Changiy²³, Marog‘iy²⁴ risolalari bilan qiyosiy o‘rganilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli **“O‘n ikki maqom qanday paydo bo‘lgani bayonida”** deb nomlanib, o‘n ikki maqomning paydo bo‘lganini qadimiy yunon olimi Aflotunga bog‘lasa, birini Muso payg‘ambar bilan bog‘lab, batafsil ko‘rsatilgan. O‘n ikki maqom haqida keltirilgan ma’lumotlar Jomiy²⁵, Kavkabiy²⁶, Kavkabiy²⁷, Changiy²⁸ Marog‘iy²⁹ va Husayniy³⁰ kabi bir qator risolalar bilan qiyosiy tahlil etilgan.

XIII asrdan boshlab XV asrga kelib, musiqa haqidagi risolalarda ladharning (parda) nazariyasi aniq matematik hisob-kitoblarga asoslangan edi. Parda, maqomlar, shu’ba va ovozarlar nazariyasi ud cholg‘usi asosida bildirilgan. Raqamlar va sonlar vositasi bilan tabulaturada lad (interval) tuzilmasini aniqlash va uni ud yoki boshqa cholg‘uda ijro etish malakaviy musiqachi uchun hech qanday qiyinchilik

¹⁷ Абдурахман Джами. Трактат о музыке. Перевод с персидского А.Н.Болдырева. – Ташкент: 1960.

¹⁸ Джумаев Александр. Наджм ад-Дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XV–XVI вв. Жизнь и творчество (исследования и переводы). – Ташкент: 2016.

¹⁹ Зайнулабидин ибн Мухаммад бен Махмуд ул-Хусайни. Музыкальный канон. С таджикского перевёл и примечаниями снабдил А.А.Семенов.

²⁰ Абдурахман Джами. Трактат о музыке. Перевод с персидского А.Н.Болдырева. – Ташкент: 1960.

²¹ Начмиддин Кавкабий Рисолаи мусикӣ; Рисола дар баёни Дувоздах маком. Тахия, таҳқиқ ва тавзеҳот ба қалами Асқарали Рачабов. – Душанбе: Ирфон, 1985. С. 46.

²² Зайнулабидин ибн Мухаммад бен Махмуд ул-Хусайни. Музыкальный канон. С таджикского перевёл и примечаниями снабдил А.А.Семенов. С. 35 а.

²³ А.А.Семенов таржимаси. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVIII). – Ташкент: 1946. Б. 8–9.

²⁴ Makāsġdu’l-elhân’in farsça metnġ. Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanesi Revân, nr.1726.

²⁵ Абдурахман Джами. Трактат о музыке. Перевод с персидского А.Н.Болдырева. - Ташкент: 1960.

²⁶ Начмиддин Кавкабий Рисолаи мусикӣ; Рисола дар баёни Дувоздах маком. Тахия, таҳқиқ ва тавзеҳот ба қалами Асқарали Рачабов. – Душанбе: Ирфон, 1985. С. 48.

²⁷ Джумаев Александр. Наджм ад-Дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XV–XVI вв. Жизнь и творчество (исследования и переводы). – Ташкент: 2016.

²⁸ А.А.Семенов таржимаси. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVIII). – Ташкент:1946.

²⁹ Makāsġdu’l-elhân’in farsça metnġ. Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanesi Revân, nr.1726.

³⁰ Зайнулабидин ибн Мухаммад бен Махмуд ул-Хусайни. Музыкальный канон. С таджикского перевёл и примечаниями снабдил А.А.Семенов.

tug‘dirmagan. Shunday qilib, XV asrda musiqaga oid risolalar mualliflari tomonidan qo‘llanilgan nazariya³¹ amaliyotdan uzoqlashmaganidan dalolat beradi.

Qo‘lyozmada qaysi maqom birinchi bo‘lganligi haqida nazariy qarashlar berilib, birida “Ushshoq” ilk maqom sifatida bayon etilsa, birida “Rost”ni qayd etadi.

Ushbu bo‘limda muallif o‘n ikki maqomning paydo bo‘lganini ikki qissaga – birini Aflotunga bog‘lasa, birini Muso payg‘ambar bilan bog‘lab, batafsil yoritib beradi. O‘n ikki maqomni ketma-ketlik bo‘yicha birma-bir sanab o‘tadi. Ushbu keltirilgan ketma-ketlik bir qator risolalar bilan taqqoslandi. So‘ng muallif qaysi maqom birinchi bo‘lganligi haqida o‘zining fikr-mulohazalarini berib, birida “Ushshoq”ni va birida “Rost”ni qayd etadi. Har bir fikrini nima sababdanligini izohlab o‘tadi. Bo‘lim oxirida maqomlarning (ladlarni) o‘xshashligini va tafovutlariga alohida to‘xtaladi.

Mazkur risola bilan 12 maqomning ketma-ketligini taqqoslash yo‘lida o‘rta asr olimlarining nazariy-amaliy qarashlari har xil bo‘lganligi bilan bir qatorda faqatgina maqomlar ketma-ketligida turfalik mavjud, lekin ularning nomlari, tuzilishi, ichki tuzilmasi o‘zgarimasdan qolgan. Balki davrlar o‘zgarishiga qarab, maqomlar ketma-ketligiga ham o‘zgarishlar kiritilgan ham bo‘lishi mumkin.

